

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

T.S.Axmedova	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishida o'yin hamda o'yinchoqning ahamiyati	214
Z.O.Qosimoy	
Oliy tibbiy ta'lif talabalarining bioetik bilimlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning nazariy jihatlari.....	218
M.A.Usmanov	
Makon va zamon xususiyatlarini anglashda inson idrok darajasining roli.....	222
A.A.Minavarov	
Tibbiyot oliygohi talabalarida tibbiy-ekologik kompetentlikni rivojlantirishning integrativ usuli ..	228
G.K.Usmanova	
Tibbiyot ta'lif muassalari talabalarida gigienik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik zarurati	231
X.A.Madaminov	
Musobaqa faoliyati sharoitlarida kurashchilarning texnik-taktik imkoniyatlarini yuzaga chiqarish ishonchliligi muammosi.....	234
C.Y.Анварбекова	
Исторические слова и основные аспекты их использования в лингвистике	238
Д.М.Азимова	
Дистанционное образование в обучения иностранному языку: эффективность и критерии	242
Д.Ф.Керимов	
Anketirovaniye kak metod issledovaniya ispolzovaniya IT tekhnologij v obrazovatel'nom i trenerovochnom processse	247
S.A.Mirzaqobilova	
Inklyuziv ta'lilda o'quvchilarni o'qitishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	255
J.Q.Mirzajonov	
Bo'lajak ijtimoiy ish xodimlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish zarurati	260
F.O'.Toshboltaev	
Bo'lajak pedagoglarning metodik tayyorgarligini rivojlantirishda pedagogik va axborot texnologiyalarining o'rni	264
R.D.Mustayev	
Temuriylar davri mutafakkirlari va ularning ijtimoiy-axloqiy qarashlarining shakllanishi va falsafiy tavsifi	267
S.A.Xayrullayev	
Jamiyat barqarorligini ta'minlashda konsolidatsiya omillari tavsifi	271
N.M.Aliyev	
Gipotetik-deduktiv yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarida analitik fikrlashni rivojlantirishning uslubiy jihatlari.....	275
G.I.Otaboyeva	
Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining gender madaniyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning nazariy jihatlari.....	279
N.T.Abdullajonova	
Germenevlik yondashuv va uning bo'lajak tarix o'qituvchilarining tarixiy jarayon qonuniyatlariga doir bilimlarini rivojlantirishdagi ahamiyati	282
Y.H.Teshayeva	
Ilimga yo'g'rilgan umr	286
Sh.B.Sattorova	
Yangi O'zbekistonda Mirzo Abdulqodir Bedil falsafasining barkamol avlodni shakllantirishdagi ma'naviy-axloqiy ahamiyati.....	290
M.F.O'rmonova	
Neologizmlarning til rivojiga ta'siri (ingliz va o'zbek tillari misolida)	295
S.A.Rahmonberdiyeva	
Bino-inshootlar qurilishiga oid terminlarning xususiyatlari	298
Sh.G'.Xasanov	
Bo'lajak o'qituvchilarining kollaborativ yondashuv asosida pedagogik intensiyalarini rivojlantirish metodikasini qo'llash	303



УО'К: 378.014.15

**OLIY TIBBIY TA'LIM TALABALARINING BIOETIK BILIMLARINI RIVOJLANTIRISH
METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI**

**ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДИКИ ФОРМИРОВАНИЯ
БИОЭТИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ СТУДЕНТОВ ВЫСШЕГО МЕДИЦИНСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ**

**THEORETICAL ASPECTS OF IMPROVING THE METHODOLOGY OF DEVELOPING
BIOETHICAL KNOWLEDGE OF HIGHER MEDICAL EDUCATION STUDENTS**

Qosimoy Zafar Odilovich

Andijon davlat tibbiyat instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Maqolada oliv tibbiy ta'lif talabalarining bioetik bilimlarini rivojlanishni metodikasini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari, rivojlanishning pedagogik mexanizmlari va texnologik asoslari o'rganilgan. Shuningdek, oliv tibbiy ta'lif talabalarining bioetik bilimlarini rivojlanishni metodikasini takomillashtirishning nazariy jihatlari tahlil qilingan.

Аннотация

В статье рассматриваются теоретико-методологические основы совершенствования методики развития биоэтических знаний студентов-медиков, педагогические механизмы и технологические основы разработки. Также проанализированы теоретические аспекты совершенствования методики формирования биоэтических знаний у студентов высшего медицинского образования.

Abstract

In the article, the theoretical-methodological bases of improving the methodology of developing bioethical knowledge of higher medical education students, pedagogical mechanisms and technological bases of development are studied. Also, the theoretical aspects of improving the methodology of developing bioethical knowledge of higher medical education students were analyzed.

Kalit so'zlar: biologiya, bioetik, reproduktiv, hamkorlik, texnologiya, takomillashtirish, pedagogik, texnologik, model, monitoring, didaktik, loyihalash, ekspert baholash, pedagogik eksperiment.

Ключевые слова: биология, биоэтика, репродуктивная, коопeração, технология, совершенствование, педагогический, технологический, модель, мониторинг, дидактический, проектирование, экспертная оценка, педагогический эксперимент.

Key words: biology, bioethics, reproductive, cooperation, technology, improvement, pedagogical, technological, model, monitoring, didactic, design, expert assessment, pedagogical experiment.

KIRISH

Tibbiyotga bozor munosabatlarining kirib kelishi, farmakologiyaning jadal rivojlanishi, tibbiyot va farmakologiyada xususiy sektor ulushi ortishi, sog'liqni saqlash sohasidagi degumanizatsiyalashuv jarayonlari, yangi ilmiy va tibbiy texnologiyalardan foydalanishning ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy muammolar, inson va tabiat munosabatlaridagi muvozanatning o'zgarishi, ekologik muammolarining keskinlashuvi, turli pandemiyalarning jumladan, COVID-19 pandemiyasi kabi global muammolarining o'tkirlashuvi bioetik dunyoqarashni shakllantirish ehtiyojini yuzaga keltirmoqda. Bioetika chuqur falsafiy asos, universal axloqiy mavqega ega bo'lib, uning tadqiqot doirasi inson salomatligi, shaxsiy daxlsizligi, zamonaviy biotexnologiyalardan foydalanishning ijtimoiy-ma'naviy mezonlari kabi ko'plab dolzarb masalalarni o'z ichiga oladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Respublikamiz va xorijiy davlatlarning olimlari tomonidan talabalarning bioetik bilimlarini rivojlanishni masalalarini V.R.Potter, V.I.Vernadskiy, P.Tishenko, V.V.Fedorin, I.Azimov, U.B.Baxodirova, M.N.Ibodova, O.Mavlonov, A.K.Raximov, J.O.Tolipova, N.J.Toshmanov, SH.Xasanova, G.S.Ergasheva, L.Qoraxonova, A.T.G'ofurov va boshqalar tomonidan tadqiq

ILMIY AXBOROT

etilgan. Bioetikaga oid ilmiy tadqiqotlarning tahlilida ularning tibbiy, siyosiy, axloqiy, pedagogik jihatlari olib berilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bioetika zamonaliviy madaniyatning murakkab tarkibiy qismi bo'lib, ilm-fan va biotibbiy texnologiyalar yutuqlarining axloqiy oqibatlarini o'rganuvchi, tahlil qiluvchi, insoniyatning jamiki "tiriklik"ka oqilona munosabatini ifodalaydigan ta'lilot. Jamiyat taraqqiyotiga bioetikaning ta'sirini tahlil qilish, bioetikaning mohiyatini tushunish va uning ilmiy, falsafiy, axloqiy bilimlar tizimida tutgan o'rnini tushunishdan boshlanadi. Bioetikaning ijtimoiy-falsafiy mohiyatini tahlil qilish, uning ta'lilot, fan, nazorat mexanizmi sifatidagi mohiyatini kengroq tushunishga imkon beradi.

"Bioetika" atamasi ilmiy iste'moldagi nisbatan yangi atama hisoblanadi. Ushbu atamani paydo bo'lishi haqida ilmiy adabiyotlarda ikki xil qarash mavjud. Ayrim manbalarda ushbu atamani Amerikalik mashhur onkolog vrach Van Ranseler Potter (1911-2001) ilk bor ilmiy muomalaga kiritgan, degan yondashuvlar mavjud va bu asosan rus tilidagi manbalarda uchraydi. Ingliz va nemis tilidagi ayrim manbalarda esa, nemis ilohiyotchisi Frits Jaxr 1927-yil "Kosmos" jurnalida e'lon qilgan maqolasida "Bio-Ethik" terminini ishlatgani ammo, amerikalim olim V.R.Potter tomonidan ushbu atama yaxshiroq ifodalanganligi aytib o'tilgan.

Har ikki holatda ham bioetikaning shakllanishi va rivojlanishida Potterning hissasi beqiyos. Potter insoniyat farovonlikka erishish uchun ijtimoiy va tabiiy fanlar o'z ilmiy yutuqlarini uyg'unlashtirishi lozimligini, "Omon qolish fani shunchaki fan emas, ikki muhim va zaruriy elementlar – biologik bilim va axloqiy qadriyatlarni o'zida mujassamlashtirgan yangi donishmandlik bo'lishi kerak" ligini ta'kidlaydi.

U o'zining "Bioetika – kelajakka ko'pri" kitobida "bioetika" atamasini ilmiy izohini berish bilan bir qatorda xalqaro amaliyotda keng quloch yoygan etika bo'yicha fanlararo qo'mitalar tashkil etish g'oyasini ham ilgari surgan. Bu olimning asosiy g'oyasi yer yuzida hayotni saqlab qolish maqsadida gumanitar fanlar va biologiya fani muammolarini o'zaro hamjihatlikda hal etishdan iborat bo'lgan. Uning fikricha, aynan "Normal va barqaror sivilizatsiyada insonning tur sifatida uzoq muddat yashab qolishi etika normalari tizimini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashni taqozo etadi". Etika normalarining mazkur tizimini V.R.Potter "global bioetika" deb nomlaydi. Global bioetikani tibbiyot etikasi, bioetika, atrof muhit etikasiga bo'linishini ilmiy jihatdan isbotlab beradi. Potterning fikriga ko'ra, "Bioetika insoniyatning yashab qolishini ta'minlash va butun kishilik jamiyatining sog'lig'ini saqlash uchun tibbiyot etikasi bilan atrof muhit etikasi (ekoetika)ni jahon miqyosida birlashtiruvchi ko'pri bo'lishi lozim"

Bioetika yangi fan sohasi, uning paydo bo'lishiga texnologiya taraqqiyotning inqilobiy yangiliklari va ularning amaliyotga joriy etilishi, shu bilan birgalikda insonparvarlik tendensiyalarining kuchayishi sabab bo'ldi. Bioetikaning obyekti insonning ilmiy tadqiqotlari va butun ekotizim hayoti o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi ijtimoiy-axloqiy mezonlardir.

1978-yil chop etilgan "Bioetika ensiklopediyasi" da Bioetikaga "Hayot va salomatlik fanlari doirasida insonning axloqiy qadriyatlar va tamoyillarga asoslangan xatti-harakatlarini tizimli o'rganish" – deb ta'rif beriladi. Ushbu ta'rif bioetika dastlabki ta'rif sifatida nisbatan torroq mazmun kasb etgan. Keyinchalik, bioetika doirasida tadqiqotlarning kengayishi, ilmiy izlanishlarning kengayishi bioetikaning falsafiy mazmuniga nisbatan yangicha yondashuvlar vujudga kelishiga olib keldi.

1995-yil nashr etilgan "Bioetika ensiklopediyasi" ning yangi nashrida bioetikaga "Fanlararo shakllangan turli xil axloqiy metodologiyalar yordamida hayot va tibbiy davolanish fanlari doirasida axloqiy parametrлarni – axloqiy baho, qarorlar, xatti-harakatlar, ko'rsatmalar va boshqalarni - tizimli o'rganish" – deb ta'rif beriladi. Bu esa, ushbu atamaning mohiyati yanada aniqlashtirib borilganini, bioetika chegaralarining kengayganini ko'rsatadi. Ushbu aniqlashtirilgan, kengaytirilgan yondashuvlar bioetikaning huquqiy asoslari yaratilishiga ham zamin bo'lgan.

Bioetikaning babs doirasasi (ko'rib chiqishi kerak bo'lgan tushunchalar, voqeliklar)ni aniqlashtirish uning asosiy metodologik muammolaridan biridir. Bioetikaning babs doirasini belgilashda 1991-yil Italiyaning eris shahrida bo'lib o'tgan bioetikaning tibbiy etika va sud tibbiyotiga ta'siriga bag'ishlangan simpozium muhim rol o'ynadi. Simpozium natijasida bioetika asosiy yondashuvlar va uning ta'sir doirasini ifodalovchi hujjat vujudga keldi.

Bioetikaning mavzu doirasi, mezonlari va chegarasi haqidagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib, bioetikaning uchta darajasini ajratib ko'rsatish mumkin:

Birinchi daraja – umumi bioetika. Bu bioetikaning ilmiy asosini, yangi dunyoqarash sifatidagi mohiyatini, amaliy falsafa sifatida namoyon bo'lishini ifodalaydi. Ushbu darajada umuminsoniy tamoyillar va ma'nnaviy-axloqiy qadriyatlarga asoslangan holda bioetikaning ijtimoiy-madaniy qadriyat sifatidagi mohiyati olib beriladi va amaliy falsafa sifatidagi mavqe mustahkamlanadi.

Ikkinci daraja – maxsus bioetika. Ushbu yo'nalishda asosiy bioetik muammolar o'rganiladi va tahlil qilinadi. Gen injeneriyasi, evtanaziya, transplantologiya, yangi reproduktiv texnologiyalar, xospislar tashkil etish, ilmiy tadqiqotlarda hayvonlarga munosabat kabi o'ziga xos tibbiy va biologik muammolar keng jamoatchilik tomonidan muhokama qilinadi. Umuman, bu muammolar bioetikaning eng asosiy masalalari bo'lib, umumi bioetikaning xulosalari va qoidalari tizimida tahlil qilinadi.

Uchinchi daraja – klinik bioetika. Buni biz bevosa tibbiy va tadqiqotchilik amaliyoti bilan bog'lashimiz mumkin. Bu eng ko'p e'tibor talab qiladi, chunki, tibbiy amaliyot va tadqiqotlar axloqiy asoslashni talab qiladigan kutilmagan holatlarga boy bo'ladi. Aynan mana shu nuqtada, axloqiy dilemmalar vujudga keladi. Ular qanchalik murakkab bo'lmasin, ularni hal qilish jamiyatda sog'lom ma'nnaviy muxitning qaror topishiga xizmat qiladi.

Bundan tashqari "Ommaviy bioetika" terminining ishlatalishi ham uchrab turadi. M.B.Braun bioetikaga keng jamoatchilik e'tiborini tortish maqsadida, "ushbu atamani biotibbiy fan va biotexnologiyalar rivoji bilan bog'liq va bioetika dilemmalari borasidagi jamoatchilikning fikr-mulohazalar va bahslarga nisbatan munosabatini ifodalash uchun ishlataladi". M.B.Braun fikricha, "bunda axloq qo'mitalari bioetika diskursida potensial ishtirokchilar bilan qanday hamkorlik qilishi muhim ahamiyat kasb etadi".

A.B.Sadju yondashuviga ko'ra, bioetik analiz asosida axloq tamoyillari va qoidalari yotishi kerak. Zero, bioetika - bu biotibbiyot fanining rivojlanishi va sog'liqni saqlash amaliyotiga eng yangi texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liq bo'lgan axloqiy, falsafiy va antropologik muammolarni tadqiq etish sohasidir . SHu boisdan ham bugungi kunda tabiiy hamda sun'iy hayot o'rtasidagi farq va o'zaro aloqadorlik muammosini o'rganishda bioetika sohasi vakillari o'ziga xos ilmiy qarashlarni ilgari suradilar. Jumladan, insonlar hayotini loyihalash va sintez qilish g'oyasi bugungi jamiyatning yangi konsepsiyasini yanada boyitib borayotgan inqilobiy biotexnologiyalarni rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojni yanada oshirdi. Biroq, bu jarayon o'zining ijobiy tomonlarini namoyish etish bilan bir qatorda ko'plab ijtimoiy muammolarni ham paydo bo'lishiga sababchi bo'ldi. Bular inson hayotiga aralashuv, salomatligini saqlash yo'lida ilimiyl-tibbiy texnologiyalrdan foydalanish, yordamchi reproduktiv texnologiyalarning inson nasliga aralashuvi bog'liq axloqiy muammolar, tabiatga nooqilona munosabat natijasida yuzaga kelayotgan ekologik muammolar, salomatlikni saqlash va tibbiy sohada turli darajada ijtimoiy adolatni ta'minlash muammolari, inson huquqlari bilan bog'liq muammolar shular jumlasidandir.

XULOSA

XX asrda fan-texnika taraqqiyoti yanada tezlashdi. Insonlar, hayvonlar va o'simliklar ustida o'tkazilgan yangi ilmiy taqdidotlar jamiyatning ijtimoiy-madaniy tizimlarida keskin o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Masalan, kasalliklar spektrining o'zgarishi va uzoq umr ko'rish masalalari evtanaziya doirasida cheklandi. SHu bois xatto 90-yillarning boshlarida ham insoniyat genetikasini tadqiq qilishdagi ilmiy izlanishlar va ularning qo'llanilishidagi axloqiy muammolar ko'p olimlarni tashvishga solgan edi. Jamiyatda bioetika sohasi bilan bog'liq ko'plab muammolarni individual ravishda hal qilish mumkin emas va uni davlat siyosati darajasiga olib chiqish muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Brown M.B. Three ways to politicize bioethics. – Mode of access: <http://www.csus.edu/indiv/b/brownm> (last download: 19.01.2015)
2. Potter, V. R. Bioética Global: Construindo a partir do Legado de Leopold. Tradução de Cecília Camargo Bartalotti. São Paulo: Loyola, 2018a.
3. Reich, W. T. (1978). Encyclopedia of Bioethics Volume 1. The Free Press.
4. Sajoo A.B. Negotiating virtue: principlism and maslaha in muslim bioethics. -Mode of access: <http://sir.sagepub.com/content/43/1/53.full.pdf+html>
5. Вернадский В.И. Начало и вечность жизни. – Москва: Мысль. 1989. С.183

ILMIY AXBOROT

6. Маркова Светлана Васильевна Организация семинара-дискуссии по биоэтике // Личность, семья и общество: вопросы педагогики и психологии. 2014. №38.
7. Поттер В.Р. Биоэтика: мост в будущее. Киев: Сфера, 2002. 216 с.–с. 9
8. Тищенко П. Д. Биовласть в эпоху биотехнологий. – Москва: Наука, 2001. С.108; Тищенко П. Д. Феномен биоэтики // Вопросы философии. – 1992. – № 3. – С.104-113
9. Федорин В. В. Философско-методологический анализ проектов генетического конструирования человека: дис. канд.филос. наук. – Москва. 2017. – 157 с